Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilidagi conjunctionlarning grammatik tasnifi, ularning sintaktik vazifalari hamda English for Specific Purposes (ESP) sharoitida ushbu birliklarni o'rgatishning kommunikativ va kontekstual usullari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy qismida conjunctionlarning coordinating, subordinating va correlative turlari, ularning gap va matn tuzilishidagi vazifalari, semantik munosabatlarni ifodalashdagi roli hamda diskursiv ahamiyati yoritilgan. Amaliy-metodik qismida esa needs analysis, functional grammar, explicit instruction, task-based learning va grammar-in-context kabi yondashuvlar asosida ESP talabalari uchun samarali o'qitish modeli taklif etilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, conjunctionlarni faqat grammatik qoida sifatida emas, balki professional nutqning kohesiv va mantiqiy tashkil etuvchi vositasi sifatida o'rgatish grammatik aniqlikni, yozma nutq ravonligini hamda kasbiy kommunikativ kompetensiyani sezilarli darajada rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: conjunction, bog'lovchi, ESP, grammar teaching, syntactic function, cohesion, coherence, contextualized instruction, communicative competence, functional grammar.

Abstract: This article systematically analyzes the grammatical classification of English conjunctions, their syntactic functions, and the communicative and contextual approaches to teaching these linguistic units in English for Specific Purposes (ESP) settings. The theoretical section examines coordinating, subordinating, and correlative conjunctions, their functions in sentence and text structure, their role in expressing semantic relationships, and their discourse significance. The practical and methodological section proposes an effective instructional model for ESP learners based on needs analysis, functional grammar, explicit instruction, task-based learning, and grammar-in-context approaches. The findings indicate that teaching conjunctions not merely as grammatical rules but as cohesive and logical devices of professional communication significantly enhances grammatical accuracy, written fluency, and professional communicative competence.

Key words: conjunction, connector, ESP, grammar teaching, syntactic function, cohesion, coherence, contextualized instruction, communicative competence, functional grammar.

Аннотация: В данной статье систематически анализируются грамматическая классификация английских союзов (conjunctions), их синтаксические функции, а также коммуникативные и контекстуальные методы обучения данным языковым единицам в условиях English for Specific Purposes (ESP). В теоретической части исследования рассматриваются coordinating, subordinating и correlative conjunctions, их функции в структуре предложения и текста, роль в выражении семантических отношений и дискурсивное значение. В практико-методической части предлагается эффективная модель обучения студентов ESP на основе таких подходов, как needs analysis, functional grammar, explicit instruction, task-based learning и grammar-in-context. Результаты исследования показывают, что обучение союзам не только как грамматическим правилам, но и как средствам обеспечения связности и логичности профессиональной речи способствует значительному повышению грамматической точности, беглости письменной речи и профессиональной коммуникативной компетенции.

Ключевые слова: conjunction, союз, ESP, grammar teaching, syntactic function, cohesion, coherence, contextualized instruction, communicative competence, functional grammar.

KIRISH

Zamonaviy til ta'limida grammatika izolyatsiyalangan qoidalar majmui sifatida emas, balki ma'no yaratish va muloqotni tashkil etish vositasi sifatida talqin qilinmoqda. Ayniqsa, ESP ta'limida grammatik birliklarning amaliy funksiyasi birinchi o'ringa chiqadi, chunki tibbiyot, muhandislik, iqtisodiyot, huquq, axborot texnologiyalari va boshqa professional sohalarida fikrning aniqligi, izchilligi hamda mantiqiy bog'liqligi muhim hisoblanadi. Shu jihatdan conjunctionlar gaplar, frazalar va diskurs bo'laklari o'rtasida semantik hamda sintaktik munosabatlarni ta'minlaydigan markaziy vositalardan biri hisoblanadi.

Ingliz tilidagi conjunctionlarning o'rni, ayniqsa, akademik va professional yozuvda yaqqol namoyon bo'ladi. Sabab, natija, shart, zidlik, tanlov, qo'shish va vaqt munosabatlarini aniq ifodalash uchun o'quvchi nafaqat alohida bog'lovchini bilishi, balki uning sintaktik cheklovlari, uslubiy mosligi va diskursiv vazifasini ham tushunishi kerak. ESP o'qitishda aynan shu jihat ko'pincha muammo tug'diradi: talabalar bog'lovchilarni so'zma-so'z tarjima darajasida o'zlashtiradilar, biroq ularni kerakli janr va kontekstda to'g'ri qo'llashda qiynaladilar.

Mazkur maqolaning maqsadi ikki asosiy yo'nalishni ilmiy asosda birlashtirishdan iborat: birinchisi, ingliz tilidagi conjunctionlarning grammatik tasnifi va sintaktik vazifalarini chuqur yoritish; ikkinchisi, ESP darslarida ushbu birliklarni o'rgatishning kommunikativ va kontekstual usullarini metodik jihatdan asoslashdir. Maqolada qiyosiy-lingvistik, tavsifiy-analitik hamda pedagogik sintez usullaridan foydalanildi.

Ingliz tilidagi conjunctionlar tilshunoslikda odatda linking words yoki connecting devices doirasida ko'rib chiqiladi, biroq grammatika nuqtayi nazaridan ular uchta asosiy guruhga ajratiladi: coordinating conjunctions, subordinating conjunctions va correlative conjunctions. Cambridge Grammar manbasida conjunctionlarning ikkita yirik turi – coordinating va subordinating conjunctionlar ekanligi, correlative birliklar esa juft konstruksiyalar sifatida faoliyat ko'rsatishi ta'kidlanadi. Ushbu tasnif o'quv jarayonida nafaqat formal guruhlash, balki gaplar o'rtasidagi sintaktik va semantik munosabatlarni o'rgatish uchun ham qulay tayanch vazifasini bajaradi.

Coordinating conjunctions sintaktik jihatdan teng birliklarni bog'laydi. Ular alohida so'zlar, so'z birikmalari, gap bo'laklari yoki mustaqil clauses o'rtasida qo'llanadi. Eng keng tarqalgan birliklar sifatida and, but, or, so, yet, for va nor ko'rsatiladi. Masalan, and qo'shish ma'nosini, but va yet zidlov ma'nosini, or tanlovni, so esa natijani ifodalaydi. Ushbu birliklar, ayniqsa, akademik va professional yozuvda argumentlar orasidagi izchillikni ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy til ta'limida grammatika alohida qoidalar tizimi sifatida emas, balki kommunikativ kompetensiyani shakllantiruvchi vosita sifatida talqin qilinmoqda. Ayniqsa, English for Specific Purposes (ESP) ta'limida grammatik birliklarning amaliy va funksional jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilidagi conjunctionlar esa gap va matn tarkibidagi semantik hamda sintaktik munosabatlarni ta'minlovchi muhim til birliklaridan hisoblanadi.

Conjunctionlar va ularning grammatik xususiyatlari Cambridge Grammar manbalarida batafsil yoritilgan bo'lib, ular coordinating, subordinating va correlative conjunctionlar sifatida tasniflanadi. Ushbu manbada conjunctionlarning gap va matn tarkibidagi bog'lovchilik vazifasi hamda mantiqiy munosabatlarni ifodalashdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Bu tasnif conjunctionlarni nazariy jihatdan o'rganish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

ESP metodikasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Basturkmen (2015) til kurslarini ishlab chiqishda o'quvchilarning kasbiy ehtiyojlari, ya'ni needs analysis asosiy mezon bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, grammatik birliklarni o'qitish ham muayyan kasbiy kommunikativ vazifalar bilan bog'liq holda tashkil etilishi lozim. Ennis (2020) ham ESP va akademik ingliz tilini o'qitishda funksional yondashuvning muhimligini qayd etib, grammatik vositalarning professional diskursdagi roliga alohida e'tibor qaratadi.

Grammatika o'qitish masalalari Bell va Collins (2025) tomonidan zamonaviy SLA (Second Language Acquisition) tadqiqotlari asosida tahlil qilingan. Ular grammatikani o'qitishda qoidalarni izolyatsiyalangan shaklda emas, balki kontekst, ma'no va kommunikativ vazifalar bilan integratsiyalash zarurligini asoslab berganlar. Bu yondashuv conjunctionlarni ESP darslarida samarali o'qitish uchun nazariy пойдевор vazifasini bajaradi.

Amin (2015) grammar-in-context yondashuvining talabalarning grammatik xatolarini kamaytirishdagi ta'sirini o'rganib, grammatik birliklarni real kommunikativ vaziyatlar va matnlar asosida o'qitish samaraliroq natija berishini aniqlagan. Tadqiqot natijalari conjunctionlarni ham kontekst asosida o'qitish zarurligini kўrsatadi.

Alawerdy va Alalwi (2022) conjunctionlarni cohesive devices sifatida explicit instruction yordamida o'qitish talabalarning yozma nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilashini aniqlaganlar. Ularning fikricha, conjunctionlar matnning mantiqiy yaxlitligini ta'minlovchi vosita bo'lib, ularni maqsadli ravishda o'rgatish yozuv sifatini oshiradi.



Ehsanzadeh va hammualliflar (2024) EFL tibbiyot talabalari yozuvlarini tahlil qilib, cohesion va cohesive devices bilan bog'liq xatolar eng ko'p uchraydigan muammolar qatoriga kirishini aniqlaganlar. Bu esa conjunctionlarni, ayniqsa, professional va akademik yozuvlarda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tadqiqotlar conjunctionlarning grammatik tabiati, matndagi funksiyalari va ularni o'qitish metodikasining turli jihatlarini yoritgan bo'lsa-da, conjunctionlarning grammatik tasnifi, sintaktik vazifalari hamda ESP darslarida ularni kommunikativ va kontekstual usullar asosida o'qitish masalalari yagona tizimda kompleks ravishda yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi va o'ziga xosligi shundan iboratki, unda conjunctionlarning grammatik tasnifi va sintaktik vazifalari nazariy jihatdan tahlil qilinib, ESP ta'limida ularni o'qitishning kommunikativ hamda kontekstual usullari bir butun metodik tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, conjunctionlarni professional diskurs va kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish vositasi sifatida qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ingliz tilidagi conjunctionlarning grammatik tasnifi, sintaktik vazifalari hamda ESP darslarida ularni o'qitish usullarini tahlil qilishda qiyosiy-lingvistik, tavsifiy-analitik va pedagogik sintez metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-lingvistik metod yordamida conjunctionlarning coordinating, subordinating va correlative turlari o'zaro taqqoslanib, ularning grammatik va semantik xususiyatlari aniqlandi. Tavsifiy-analitik metod asosida conjunctionlarning gap va matn tarkibidagi sintaktik vazifalari, shuningdek, akademik hamda professional diskursdagi qo'llanilishi tahlil qilindi.

Pedagogik sintez metodi orqali ESP ta'limiga oid ilmiy adabiyotlar, zamonaviy metodik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida conjunctionlarni o'qitishda kommunikativ yondashuv, grammar-in-context, task-based learning hamda needs analysis tamoyillarining samaradorligi o'rganildi. Olingan natijalar conjunctionlarni kontekst asosida, kasbiy kommunikativ ehtiyojlarga mos ravishda o'qitish ESP talabalari grammatik kompetensiyasi va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Koordinativ bog'lovchilarning asosiy sintaktik belgisi shundan iboratki, ular bir xil darajadagi birliklarni bog'laydi va bog'langan qismlar grammatik jihatdan bir-biriga qaram bo'lmaydi. Masalan, "The device is compact and efficient" gapida ikkita sifat teng huquqli tarzda bog'langan bo'lsa, "The results were promising, but the sample was limited" gapida ikki mustaqil clause mantiqiy zidlik orqali birlashtirilgan. Bu holat ESP yozuvlarida ayniqsa argumentativ va tavsifiy uslublar uchun muhimdir.

Subordinating conjunctions ergash gapni bosh gapga bog'laydi va ularga sintaktik tobelik xosdir. Bunday birliklarga because, although, if, when, while, since, unless, whereas, before, after, once, until kabi vositalar kiradi. Ushbu bog'lovchilar sabab, zidlik, vaqt, shart, maqsad va boshqa munosabatlarni ifodalab, murakkab gap strukturasini hosil qiladi.

Masalan, because sabab munosabatini, although va while zidlov yoki qarama-qarshilikni, if va unless shart munosabatini, when va after vaqt munosabatini ifodalaydi. Subordinating conjunctionlar professional matnlarda dalillashning nozik semantik qurilishini ta'minlaydi. "If the pressure increases, the valve opens automatically" kabi gaplar texnik ESPda; "Although the symptoms improved, further monitoring was required" kabi gaplar esa tibbiy ESPda tez-tez uchraydi.

Correlative conjunctions juft shaklda qo'llanadigan bog'lovchi birliklardir. Ularning tipik namunalari either...or, neither...nor, both...and, not only...but also hisoblanadi. Bunday birliklarning metodik qiyinligi shundaki, ular nafaqat ma'noni, balki parallel syntactic structure talabini ham o'quvchidan kutadi. Masalan, "not only increased productivity but also reduced costs" tipidagi konstruksiyada parallelizm buzilsa, gap grammatik va uslubiy jihatdan noqulaylashadi.

Correlative conjunctionlar ESP yozuvlarida taqqoslash, ikki variantni tanlash yoki bir necha ustunlikni parallel ko'rsatishda juda foydali. Shunga qaramay, talabalar ushbu konstruksiyalarni kamroq va ko'pincha xato bilan ishlatadi; demak, ularni alohida drill emas, balki namunaviy professional matnlar asosida o'rgatish lozim.

Conjunctionlarning vazifasi faqat gaplarni bog'lashdan iborat emas. Ular sintaktik darajada birliklarni birlashtirsa, diskurs darajasida mantiqiy rivojlanishni boshqaradi. Shu ma'noda conjunctionlar cohesion va coherence o'rtasidagi ko'priklarni bajaradi. Cohesion yuzaki bog'lanish vositalarini anglatadi, coherence esa matnning mazmunini yaxlitligini ifodalaydi. Conjunctionlar ikkalasiga ham bir vaqtda xizmat qiladi.

Birinchi navbatda conjunctionlar so'zlarni, nominal groupsni, verbal groupsni va clausesni bog'laydi. Bu esa gapning strukturaviy murakkabligini boshqaradi. L2 writing tadqiqotlarida clause complexity va phrasal complexity ko'rsatkichlari yozma malaka bilan bog'liq ekanini qayd etilgan; conjunctionlardan ongli foydalanish murakkab gap tuzilmasini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Conjunctionlar sabab-natija, zidlov, qo'shimcha, vaqt, shart, concessive, alternative kabi semantik munosabatlarni aniq kodlaydi. ESP yozuvlarida aynan ushbu munosabatlarni noto'g'ri ifodalash ma'noni buzadi. Masalan, sabab munosabati uchun because va since ko'p hollarda funksional jihatdan yaqin bo'lsa-da, matn janri va pragmatik urg'usiga ko'ra farqlanishi mumkin. Xuddi shuningdek, but, however va although bir-birining to'liq sinonimi emas; ular turli sintaktik pozitsiya va diskurs funksiyalariga ega.

Akademik va professional matnda conjunctionlar paragraph progressionni boshqaradi. Muallif argumentni kengaytirishda addition, qarama-qarshi nuqtani kiritishda contrast, sababni ochishda cause, amaliy oqibatni ko'rsatishda result conjunctionlaridan foydalanadi. Shuning uchun conjunctionlar alohida grammatika birligi emas, balki matn tuzish strategiyasining bir qismi sifatida o'rganilishi kerak. O'qitishda conjunctionlarni topic sentence, supporting detail, explanation va conclusion bo'laklari bilan integratsiya qilish ayni muddaodir.

ESP ta'limi umumiy ingliz tilidan farqli ravishda aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Basturkmen va boshqa ESP olimlari kurs dizayni needs analysisga tayanishi lozimligini ta'kidlaydilar. Demak, conjunctionlarni o'qitish ham umumiy ro'yxat ko'rinishida emas, balki ma'lum soha diskursida qaysi munosabatlar ustunligi aniqlan-ganidan so'ng tashkil qilinishi kerak.

Masalan, muhandislik matnlarida sequence, cause-effect va condition munosabatlari, biznes yozuvlarida contrast, result va recommendation strukturalari, tibbiy yozuvlarda evidence, condition, caution va limitation konstruksiyalari ko'proq uchraydi. Bu esa conjunctionlarni "hammasini birdek" o'qitishdan ko'ra, chastota va funksiyaga asoslangan ta'limni talab etadi.

So'nggi tadqiqotlar grammatikani form-focused, lekin ma'no va funksiyadan ajralmagan holda o'qitish zarurligini ko'rsatadi.

Bell va Collins grammatika bo'yicha zamonaviy SLA tadqiqotlari bilan kursliklardagi yondashuvlar o'rta-sida ayrim tafovutlar borligini ko'rsatib, o'qitishda qoidani kontekst, qayta aloqa va ma'no bilan integratsiya qilish kerakligini ta'kidlaydi. Martin esa ilmiy ingliz tilini o'qitishda form va function juftligini markazga qo'ygan yondashuvni taklif etadi; bu qarash conjunctionlarni ESPda o'rgatish uchun ham juda mos keladi.

Kommunikativ yondashuv conjunctionlarni real muloqot ehtiyojlari doirasida o'rgatishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda o'quvchi conjunctionni qoida sifatida yodlamaydi; aksincha, ma'lum kommunikativ maqsadni amalga oshirishda undan foydalanadi. ESP uchun bunday maqsadlar hisobot yozish, case presentation, process description, risk explanation, negotiation, recommendation yoki problem-solution muhokamasi bo'lishi mumkin.

Masalan, ikki talaba turli bo'lak ma'lumotga ega bo'lgan muhandislik vazifasini bajarishi mumkin. Yakuniy tavsifni ishlab chiqish uchun ular condition, cause, result va contrast conjunctionlaridan faol foydalanadi. Shunday topshiriqlar conjunctionni sun'iy misoldan olib chiqib, kommunikativ.

Biznes ESPda loyiha muhokamasi, tibbiy ESPda patient handover, IT ESPda bug-report explanation kabi simulyatsiyalar conjunctionlardan tabiiy foydalanishga imkon beradi. Masalan, talabaga "Explain why the system failed and what should be done if the error appears again" vazifasi berilganda, u because, since, if, unless, therefore kabi birliklarni mazmunan zarurat tufayli qo'llaydi.

Boshlang'ich va o'rta darajadagi ESP talabalarida conjunctionlarni kommunikativ nutqqa olib kirish uchun sentence frame va discourse frame'lardan foydalanish samarali bo'ladi. Masalan: "The procedure was delayed because...", "Although the data are limited, ...", "If the temperature exceeds the threshold, ...", "Not only did the company reduce costs, but it also...". Bunday tayanchlar talabani grammatik aniqlikka yaqinlashtiradi va keyin-chalik mustaqil nutqqa o'tishga yordam beradi. Kontekstual yondashuv conjunctionlarni ajratilgan ro'yxat sifatida emas, balki matn ichida, janr ichida va intellektual vazifa ichida o'rganishga asoslanadi. Grammar-in-context bo'yicha tadqiqotlar bunday yondashuv yozuvdagi xatolarni kamaytirishi va grammatik ongini kuchaytirishini ko'rsatgan. ESPda report, abstract, lab report, recommendation memo, literature review, case summary kabi janrlar mavjud. Har bir janrda conjunctionlarning ustuvor turlari farq qiladi. Masalan, lab reportda sequencing va cause-result, recommendation memo'da contrast va result, literature review'da concession va addition munosabatlari yetakchi bo'lishi mumkin. O'qituvchi namunaviy janr matnini tanlab, undagi conjunctionlarni funksional xarita asosida tahlil qilishi lozim.

Talabalar soha matnlaridan kichik korpus tuzib, conjunctionlar chastotasi va pozitsiyasini kuzatishi mumkin. Masalan, tibbiy article abstractsida although, while, because, therefore, however kabi birliklarning qanday ishlatilishi aniqlanadi. Bu usul data-driven learning elementlarini o'z ichiga oladi va o'quvchini grammatika kashfi-yotiga jalb qiladi.



Conjunctionlarni paragraph writing va report writing bilan integratsiya qilish ayniqsa samarali. Alawerdy va Alalwi tadqiqoti conjunctionlarni cohesive device sifatida explicit instruction asosida o'qitish talabalarning paragraph writing natijalarini sezilarli yaxshilaganini ko'rsatgan. Demak, conjunctionlarni mashq qilishning optimal yo'li – ularni bevosita yozuv topshirig'ida sinab ko'rish, peer feedback va revision jarayoni orqali mustahkamlashdir.

ESP talabalari conjunctionlarni o'zlashtirishda bir necha tipik muammolarga duch keladi. Birinchisi, L1 transfer yoki interferensiya. O'quvchi ona tilidagi bog'lovchi tizimini ingliz gaplariga ko'chiradi va natijada sintaktik xatolar yuzaga keladi. Ikkinchisi, conjunction va conjunctive adverbni chalkashtirish. Masalan, but bilan howeverning punktuatsion va sintaktik farqi yetarli darajada tushunilmasa, yozuv notekis bo'ladi.

Uchinchi muammo – overuse of simple connectors, ya'ni and, but, because singari sodda birliklarga haddan tashqari tayanishdir. Tibbiy talabalar yozuviga oid 2024-yildagi tahlilda cohesion va cohesive devices bilan bog'liq xatolar eng yuqori chastotali xatolardan biri ekani aniqlangan. Bu conjunctionlarni ko'proq janr darajasida o'rgatish zarurligini ko'rsatadi.

To'rtinchi muammo – parallelismning buzilishi, ayniqsa correlative conjunctionlarda. Beshinchi muammo esa conjunctionni ma'noga mos, ammo janrga nomos uslubda qo'llashdir. Masalan, professional hisobotda haddan tashqari og'zaki yoki juda sodda connectorlar matnning rasmiyligini pasaytiradi (1-jadval).

1-jadval: Conjunctionlarni o'qitish uchun namunaviy funksional

Munosabat turi	Asosiy conjunctionlar	ESPdagi tipik janr/vazifa	O'qitish usuli
Addition	and, furthermore, not only... but also	Project description; specification summary	Text marking + guided rewriting
Contrast	but, yet, although, whereas	Recommendation memo; literature review	Debate + contrastive paragraph writing
Cause/Result	because, since, so, therefore	Technical explanation; case analysis	Cause-effect mapping + report writing
Condition	if, unless, provided that	Risk protocol; procedure manual	Simulation + decision-tree tasks
Sequence/Time	when, after, before, while	Process description; lab report	Process narration + diagram-based speaking

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi conjunctionlar grammatik tasnif, sintaktik tashkil va diskursiv rivojlanish nuqtayi nazaridan ESP ta'limining markaziy unsurlaridan biridir. Ular coordinating, subordinating va correlative guruhlarga ajralgan bo'lsa-da, amaliy ta'limda ularni shu formal tasnif bilan cheklash yetarli emas. Muhimi, conjunctionlarning ma'nosi, funksiyasi, janri va kasbiy vazifa bilan bog'liq jihatlari birgalikda o'rgatilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alawerdy, A. S., & Alalwi, F. S. (2022). Enhancing English as a Foreign Language University Students' Writing Through Explicit Instruction of Conjunctions as Cohesive Devices. *Frontiers in Psychology*, 13.
2. Amin, Y. N. (2015). Teaching Grammar-in-Context and Its Impact on Minimizing Students' Grammatical Errors. *Lingua Scientia*, 7(1).
3. Basturkmen, H. (2015). *Developing Courses in English for Specific Purposes*. Palgrave Macmillan.
4. Bell, P., & Collins, L. (2025). Grammar Instruction in ESL Coursebooks and in Second Language Acquisition Research: Convergences and Divergences. *TESL Canada Journal*, 42(1), 65–88.
5. Cambridge Dictionary. (2026). *Conjunctions and Linking Words*. Cambridge Grammar.
6. Ehsanzadeh, S. J., et al. (2024). Analysis of High-Frequency Errors and Linguistic Patterns in EFL Medical Students' Writing. *Scientific Reports*, 14.
7. Ennis, M. J. (2020). *Approaches to English for Specific and Academic Purposes*. Routledge.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.